

1. *Абу Наср Фаробий* Фозил одамлар шахри. Т.: А.Қодирий, 1993.
2. *Афанасьев В.Г.* Системность и общество. М.: Политиздат, 1980.
3. *Василькова В.В.* Порядок и хаос в развитии социальных систем. Синергетика и теория социальной самоорганизации. СПб.: Лан, 1999.
4. *Вебер М.* Протестантская этика и дух капитализма.// Вебер М. избранные произведения М.: Прогресс, 1990.
5. *Мамджян К.Х.* Введение в социальную философию. М.: Высш. шк., 1997.
6. *Парсонс Т.* Система современных обществ. М.: Аспект-Пресс, 1998.
7. *Николов И.* Кибернетика и экономика. М.: Экономика. 1984.
8. *Поппер К.* Открытое общества и его враги. М.: Прогресс, 1992.

Z. Hamrayeva, O.A. Samadov
O'zbekiston
Samadovortiq19981112@gmail.com

IJTIMOY SOHA IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy muammolar, ularning amaldagi yechimlari va hozirgi kundagi yechimlari haqidagi izlanishlarni o'zida ifoda etadi. Ijtimoiy sohaning davlatimiz siyosatidagi muhim o'rnini haqida fikrlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, xo'jalik faoliyati, yalpi ichki mahsulot, aholi ijtimoiy qatlamlari, ijtimoiy soha, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy tenglik, yangi ish o'rinlari, xarajatlar sarfi, ijtimoiy soha xarajatlari.*

So'nggi yillarda respublikamizda hududlarni umumiy tarzda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yo'lga qo'yish, aholining turmush tarzini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadda hududlarni kichik qismlarga bo'lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. Dunyo miqyosida o'z o'rnimizni topish, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish uchun eng asosiy e'tibor ta'lim va sog'liqni saqlash sohaslariga qaratilishi shubhasiz. Hozirgi kundagi eng muammoli tomonimiz ham ta'lim olish maskanlarini yuqori darajadagi innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlay olmasligimizdir. Yaponiya yoki boshqa ilg'or mamlakatlar ta'lim sohasiga e'tibor bersak, yuqori darajadagi innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanganidir. Shu tarzda boshqa innovatsion raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanishi kerak bo'lgan tarmoqlarni ko'rib chiqamiz.

Ta'lim –yuqoridagilarga qo'shimcha qilgan holda va eng asosiy sohalardan biri bo'lganligi sababli har bir shahar , viloyat , tumanlardagi o'quv maskanlari zamon talabiga to'la javob beradigan texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi

- Sog'likni saqlash – yuqori darajadagi malakali doktorlar va davolash uskunalarning faqat shahar viloyat yoki tuman markazlaridagina mavjudligi chekka hududlarda esa bu boradi olib borilayotgan ishlar anchayin sustligi kuzatish mumkin.

- Xizmat ko'rsatish – ko'pgina xizmat ko'rsatish ayniqsa turistlar ko'p tashrif buyuradigan joylarda eskicha texnologiyalardan foydalanilayotganligi. Bunga misol qilib, eng ko'p turist tashrif buyuradigan Samarqand yoki Xorazm viloyatlaridagi xizmat sohalari jahon talabiga to'la javob bera olmasligi.

- Transport xizmatlari – transport xizmatlarida qo'l xizmatida naqd pul to'lovlari bilan aloqa qilinishi, to'g'ridan-to'g'ri plastik yoki hisob raqami orqali to'lov qilish uchun sharoitlar yo'lga qo'yilmaganligi.

- Valyuta bozorlari- yurtimizda qora bozorlar mavjudligi va faol tarzda ish olib borayotgani hech kimga sir emas. Bunga asosiy sabab qilib, albatta bank tomonidan xorij valyutalarini sotib olish va sotishdagi kamchiliklarni ko'rsatish mumkin.

Butun jahon rivojlangan davlatlari imkon qadar raqamli iqtisodiyotga o'tishni o'ylab harakat qilayotgan bir paytda, biz oddiy naqd pul muammosini oxirigacha hal qilmaganimizdir. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda eng birinchi navbatda avvalo mana shu raqamli texnologiyalarni takomillashtirish kerak bo'ladi.

Bu muammolarni bartaraf etish, raqamli iqtisodiyotimizni jahon miqyosiga olib chiqish uchun mamlakatimiz prezidenti tomonidan 2020-yil – IIm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki, yangi yilda katta e'tibor raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratiladi. Bu borada 2020-yilda qilinadgan ishlar belgilanib berildi. Birinchi navbatda ta'lim, sog'liqni saqlash, kadastr, geologiya, transport, qurilish, qishloq va suv xo'jaligi sohaslarini to'liq raqamlashtirish. Shuningdek, Elektron hukumat tizimini amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqish, eng quvonarlisi shuki barcha shahar va qishloqlarda internet tezligini oshirish ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilish shartligini ta'kidlab o'tdi. Bu vazifalarni ko'zda tutgan holda Raqamli O'zbekiston-2030 dasturini ishlab chiqishni ikki oy muddatga yakunlash lozimligi ta'kidlandi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz budjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy soha xarajatlariga sarflanadi. Shundan eng katta mablag'lar talab qiladigani ta'lim muassasalari (9774 ta), sog'liqni saqlash muassasalari (1165 ta) va ijtimoiy himoya doirasida 36903000 kishiga pensiya to'lovlari amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib barcha uchun umumiy baza shakllantiriladi. Raqamli iqtisodiyotga o'tib borganimiz sari bizdagi bazi bir muammolar avtomatik tarzda o'z yechimini topib boradi. Yuqoriga qaraydigan bo'lsak ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish barcha aholi qatlamlari uchun harakatga motivatsiya bag'ishlaydi. Yuqoridagilar raqamli iqtisodiyotning bor yo'gi bir nechta afzalliklari holos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o'sishi va rivojlanishini ta'minlab berishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning yana bir ijtimoiy soha uchun muhim jihatlaridan biri agar biz to'liqligicha bu tizimga o'ta olsak yashirin iqtisodiyotga barham beriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki biz qanchalik yuqori sur'atlarda ijtimoiy sohani rivojlantirib borsak borsak hozirgi kundagi keng jamoatchilik muhokama etayotgan muammolar o'z yechimini kutilganidan ko'ra tezroq topadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalar qilish va yordam olish maqsadga muvofiqdir. Internet texnologiyalari bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash albatta judayam katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "6769-iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va

qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zбекистон Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida" gi Qarori

3."Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журналі. № 1, февраль, 2019 йил.